

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01  
RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SATTAROV FARRUX NURIDINOVICH**

**XIX ASR INGLIZ BOLALAR ADABIYOTINING O‘ZBEK BOLALAR  
ADABIYOTIGA TA’SIRI (tarjima va tahlil)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand–2025**

UO‘K: 81’25+821.111:821,512.133

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Sattarov Farrux Nuridinovich**

XIX asr ingliz bolalar adabiyotining o‘zbek bolalar adabiyotiga ta’siri (tarjima va tahlil) .....3

**Саттаров Фаррух Нуридинович**

Влияние английской детской литературы XIX века на узбекскую детскую литературу (перевод и анализ) .....24

**Sattarov Farrukh Nuridinovich**

The influence of 19<sup>th</sup> century English children's literature on Uzbek children's literature (translation and analysis) .....46

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil. 3.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SATTAROV FARRUX NURIDINOVICH**

**XIX ASR INGLIZ BOLALAR ADABIYOTINING O‘ZBEK BOLALAR  
ADABIYOTIGA TA’SIRI (tarjima va tahlil)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil.1163 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qarshibayeva Uljan Davirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Musurmanov Erkin Rabbimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyeva Nargiza Qo'chqarovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning «\_\_\_»\_2025-yil soat\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi,43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» kuni tarqatildi. (2025-yil «\_\_\_»\_dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent

**D.A.Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon xalqlari badiiy ijodida bolalar adabiyoti folklor janrlaridagi ertak, masal, qo‘shiq, eposlarda qo‘llanilgan obrazlarning umumiy va farqli tomonlari, ijobiy va salbiy jihatdan o‘xshashligi, asarlardagi poetik g‘oyalarning bir maqsadga yo‘naltirilganligi, makon va zamondagi evolyutsiyalar natijasida janriy takomillashuv hamda ularning didaktik ahamiyatiga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz bolalar yozuvchilari Charlz Dikens va Mark Tvenning badiiy uslubi, individual mahorati va lingvopoetikasining ko‘plab ijodkorlarga jumladan, G‘afur G‘ulom ijodiga ta’siri kabi masalalar adabiyotshunos, tilshunos va tarjimashunoslarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Shuning uchun ham, hozirgi kunda Charlz Dikens va Mark Tven asarlari tarjimalarini lingvopoetik, tarkibiy, qiyosiy aspektlarini aniqlash bolalar adabiyotining dolzarb masalasi sifatida soha taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo adabiyotida Mark Tven va Charlz Dikensning bolalar adabiyoti rivojlanishi hamda ommalashuviga qo‘shgan hissasi, bolalar ruhiy olami va xarakterini ochib berishi, voqelikning birinchi planga chiqishi, soddaliligi, tushunariligi, obrazlardagi yetakchilik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijada, adabiy estetik hodisalarning bolalar adabiyotida muhimligi, tabiat bilan bola ruhiyatining bog‘lanishi, asardan asarga qiyosiy yondashuvning o‘sib borishi, shakl va mazmunning har bir janrlardagi ahamiyati, o‘rni bilan mifologik obrazlarga murojaat qilish hozirgi zamon bolalar adabiyotidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bolalar adabiyotidagi lingvomadaniy aspektlarning tarjimadagi muammolari, bolalar nutqining ifodalanishi, mavzu guruhlarini tahlil qilish, adabiy an‘analardagi ta’sirdorlik, obraz tanlash masalasi, bolalar psixologizmini yoritilishini aniqlash bugungi kun adabiyotshunosligi oldidagi ustuvor masalaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda tarjima, tarjimonlik va tarjimashunoslik masalasida izchil va tadrijiy tarzda islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu bois o‘zbek bolalar adabiyotida tarjimashunoslar oldiga zamonaviy taraqqiyot tamoyillariga asoslangan yangi izlanishlar olib borish vazifasini qo‘ymoqda. Badiiy tarjimani lingvomadaniy hamda etno-psixologik aloqalar fenomeni sifatida ko‘rib chiqish masalasi bugungi kun talabi bo‘lib qolmoqda. “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”<sup>1</sup>. Shu ma’noda ingliz adabiyotining XIX asrdagi ikki buyuk vakili – amerikalik adib Mark Tven va britaniyalik adib Charlz Dikens ijodi asosini tashkil etuvchi bolalar adabiyotining badiiy xususiyatlari, uslubi va o‘zbek tiliga tarjimalarini tadqiq etish O‘zbekistonda adabiyotshunoslik fanining imkoniyatlarini ochib berishda

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O‘zbekiston Yoshlari Forumida so‘zlagan nutqidan. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – B. 52.

zamonaviy yangi yoʻnalish sifatida qaraladi va tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi PF-5847-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Farmonlari hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonlari, shuningdek, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Taʼlim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish boʻyicha qoʻshimcha tizimini chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2024-yil 4-iyundagi PQ-205-sonli “Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni taʼsis etish toʻgʻrisida” Qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli “Taʼlim muassasalarida chet tillarini oʻqitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, va boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda maʼlum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida ingliz bolalar adabiyotining, shuningdek, Charlz Dikens va Mark Tven asarlari badiiy uslubi va ularning lingvopoetikasi, boshqa yozuvchilar ijodiga taʼsiri kabi masalalar bilan bogʻliq boʻlgan adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarjimashunoslik sohalariga oid tadqiqotlar olib borilgan. Bolalar adabiyotining asosiy xususiyatlari boʻyicha A.Fouler, Ch.Joshua, U.Xauels, F.Gard, H.Strauman<sup>2</sup> kabi olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, B.Vardana, R.Uellek, D.Bats, J.Briggs<sup>3</sup> kabi xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan ingliz bolalar adabiyotiga psixologik yondoshuv sohasidagi ilmiy izlanishlar muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>2</sup> Strauman H. American Literature in the Twentieth Century – N.Y.: Harper and Row, Rubl., 1968. – 216 p.; Fowler A. Kinds of literature: An Introduction to the Theory of Genres and Modes. – Cambridge, Mass: Harvard University Press, 1982. – 45 p.; Chadwick-Joshua J. The Jim Dilemma: Reading Race in Huckleberry Finn. – Jackson: Univ. Press of Mississippi, 1998. – 254 p.; Хоуэллс У.Д. Из книги “Мой Марк Твен”. Пер. М.Лоре // Марк Твен в воспоминаниях современников. – М.: Терра, 1994. – С. 30; Гарт Ф.Б. Возникновение «короткого рассказа» // Писатели США о литературе. Т. 1. – С. 198-204. См. также: Hart В. The Rise of Short Story // Cornhill Magazine, July 1899. Мендельсон М.О. Марк Твен. Изд. 3-е, доп. и перераб. – М.: Молодая гвардия, 1964. – С. 122.

<sup>3</sup> Briggs J., Butts D. Popular Children’s literature in Britain. – London and New York: Published by Routledge, 2016. – 356 p; Bayu Wardhana. Coping with Children Bulling Reflected in Charles Dicken’s Oliver Twist: an Individual Psychological Approach: Department of Education School of Teacher Training and Education Muhammadiyah University of Surakarta, 2016.– P. 11; Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978. – С. 249.

Shuningdek, R.Orlova, N.I.Samoxvalov<sup>4</sup> kabi olimlar zamonaviy ingliz va Amerika bolalar adabiyotida hikoya janri bo'yicha tadqiqot olib borgan bo'lsa, A.Y.Bolshakova zamonaviy ingliz Amerika adabiyotida janr nazariyasi bo'yicha izlanishlar olib borishgan. F.Gard N.Budur, E.Ivanova, S.Nikolayeva, T.Chesnokova, F.Foner<sup>5</sup> kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ham bolalar adabiyoti, aynan ingliz va Amerika bolalar adabiyoti o'rganilgan.

O'zbek adabiyotshunos olimlari A.Abrorov, B.Sayimov, A.Zununov kabi olimlar G'afur G'ulomning hayoti va ijodi hamda uning badiiy olami haqida, N.Karimov, U.Normatov, R.Barakayev, M.Jumaboyevlar<sup>6</sup> o'zbek bolalar adabiyotida "Shum bola"ning mafkuraviy-siyosiy tazyiq masalalarini monografik tarzda o'rganishgan bo'lsa, Z.Ibrahimova S.Babayeva, M.Kaxarova<sup>7</sup> kabi olimalar o'zbek va AQSH adabiyotida badiiy talqin va o'smirlar ruhiyatining tasviri mavzulari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishib nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlashgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek bolalar adabiyoti tarjima va tahlil aspektida monografik tarzda o'rganilmagan. Ushbu holat mazkur sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari" doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Mark Tven, Charlz Dikkenzlarning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi hamda ularning G'ulom ijodiga ta'siri va badiiy uslubini qiyosiy tahlil qilish, tarjimalardagi lingvomadaniy aspektlarni aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

jahon adabiyotida bolalar adabiyotining vujudga kelishi va shakllanish bosqichlarini ochib berish;

Mark Tven asarlarining o'zbek tiliga tarjimalarini qiyoslash hamda

---

<sup>4</sup> Самохвалов Н.И. Американская литература XIX в. (Очерк развития критического реализма). – Москва: Высш. школа, 1986. – 356 с.; Орлова Р. Потомки Гекльберри Финна. Очерки соврем. Американской литературы. – Москва: Сов. Пис., 1964. – 124 с.

<sup>5</sup> Фонер Ф. Марк Твен - социальный критик. – Москва: Мысль, 1978. – 308 с.; Большакова А.Ю. Современные теории жанра в англо-американском литературоведении // Теория литературы. Т. III. Роды и жанры (основные проблемы в историческом освещении). – Москва: ИМЛИ РАН, 2003. – С. 99; Гарт Ф.Б. Возникновение «Короткого рассказа» // Писатели США о литературе. Т. 1. Москва: Выс. школа, 1984. – С. 198-204. См. также: Hart В. The Rise of Short Stories // Cornhill Magazine, IA1533528-07 Volume: 7. N.Y. John Mungay Publishers. July 1899; Будур Н.В., Иванова Э.И., Николаева С.А., Чеснокова Т.А. Зарубежная детская литература. – Москва: Академия, 1998. – С. 300.

<sup>6</sup> Аброров А., Сойимов Б. Гафур Гуломнинг бадий олами. – Тошкент, 1984. – 54 б.; Зунунов А. Гафур Гуломнинг хаёти ва ижоди: мактаб кўргазмаси ва болалар кутубхонаси учун материаллар нашри. – Тошкент, 1978. – 43 б.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 533 б.; Норматов У. «Шум бола» мафкуравий-сий тазйиқ ва рух эркинлиги // Жаҳон адабиёти, Тошкент, 2003. № 5.; Жумабоев М. Болалар адабиёти. (Дарслик-мажмуа). – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 368 б.

<sup>7</sup> Ибраимова З. Мактабгача тарбия ёшидаги болалар насрининг ғоявий бадий хусусиятлари: Филол. фан номзоди диссертацияси. – Тошкент, 1990; Бабаева С.Р. Ўзбек ва АҚШ адабиётида болаликнинг бадий талқини (Ғ.Ғулом ва М.Твен ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 54 б.; Кaxarova M.Y. Ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar ruhiyati tasviri: Filol.fan.b.fals.dok. ... diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 52 b.

tarjimalarning badiiylik va ta'sirchanlik darajasi hamda lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash;

Charlz Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" asarida bolalar obrazining yoritilishida yordamchi personajlarning ahamiyatini asoslash;

o'zbek tarjimonlarining mahorati darajasini qiyoslash, o'zbek adabiyotiga ingliz bolalar adabiyotining kirib kelish omillarini dalillash;

romanda bolalar portreti va nutqining o'zbek tiliga tarjimada berilishi va obrazlarning o'zbek bolalar adabiyotiga ta'siri masalasini ochib berish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida ingliz bolalar adabiyotining mashhur namoyandasi Charlz Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" (Erkin Mirobidov tarjimasi), AQSH adibi Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" (Ilyos Muslim tarjimasi), "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" (Odil Rahimiy tarjimasi) romanlarining inglizcha va o'zbekcha tarjimalari, G'ulomning "Shum bola" qissasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Mark Tven va Charlz Dikkens ijodida bolalar adabiyotining shakli, tarkibi, mavzusi, ularning rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarining o'ziga xos qiyosiy tahlili shuningdek, G'afur G'ulom ijodiga ta'siri tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, badiiy tarjima matnlarining qiyosiy tahlili, lug'aviy - ma'noviy, struktural, tipologik - tasnifiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz bolalar adabiyotining yangi bosqichga chiqishida Charlz Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" romanidagi psixologik – *yetim bolalarning ruhiyati tasviri*, ijtimoiy – *tabaqalanishning kuchliligi*, karakter – *yetakchilik xususiyati* kabi jihatlar ochib berilib, asar tarjimasining o'zbek bolalar adabiyotiga uslub, janr, g'oya, poetik til nuqtai nazaridan ta'siri aniqlangan;

Mark Tven ijodidagi gumanistik va demokratik pozitsiya, obrazlar nutqidagi yumor va o'tkir satira, insonparvarlik, odamiylik, bag'rikenglik, optimistik ruh va chuqur falsafiy mazmun ta'sirchanligining tarjimada saqlab qolingani asliyat bilan qiyoslash orqali asoslangan;

Mark Tven asarlarining rus va o'zbek tillariga qilingan tarjimalari badiiy va estetik xususiyatlarining kitobxon dunyoqarashiga begona makonning manzarasi, peyzajning ruhiyatga ta'siri kabi ta'sirchanlik darajalari hamda matnning kommunikativ funksiyasini saqlagan xolda uning pragmatik aspektlarda nutqning yashirin maqsadlari, muallifning o'zi xabar qilayotgan voqelikka munosabati, kitobxon muallifni biografik jihatdan kuzatishi kabi xususiyatlari ochib berilgan;

G'afur G'ulom ijodiga "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asarlarining adabiy ta'siri aniqlangan hamda, adibning asarlarida ham sarguzashtlilikning yetkachiligi, realizmning kuchliligi va avtobiografik elementlarning mavjudligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Mark Tven va Charlz Dikkens asarlari tarjimalarining badiiy ijodga ta'siri, mavjud tarjimalarda so'zlarning berilishi va ularda ifodalangan nutqiy semalar aniqlanib, olingan xulosalar asosida bolalar adabiyotining yanada mukammalroq

o'rganilishi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Mark Tven, Charlz Dikens va boshqa ingliz yozuvchilari asarlaridan ilhomlangan o'zbek adibi G'afur G'ulom o'zining turkum asarlarini yaratgani, keyinchalik bolalar adabiyotini yuksak darajaga ko'targanligiga oid xulosalar tarjimashunoslik hamda adabiyotshunoslik bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiluvchi materiallar bo'lib hisoblanadi;

o'zbek tiliga o'girilgan Mark Tven, Charlz Dikens va boshqa ingliz yozuvchilari asarlarining tarjimalarini dissertatsiyada tadqiq va tahlil qilish orqali erishilgan natijalar adabiyotshunoslikning zamonaviy masalalarini, qiyosiy va chog'ishtirma adabiyotshunoslik, tarjimashunoslikning dolzarb masalalarini o'qitishda badiiy asar tili va uslubi hamda mahorat masalalarini yoritishda muhim qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarni tavsiflash, tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, badiiy tarjima matnlarining qiyosiy tahlili kabi usullar bilan asoslanganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar faktik til materiallari, chop etilgan risola, maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, matnlar tahlili qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tahlil qilish metodlari asosida olib borilganligi, erishilgan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz bolalar adabiyotida yuzaga kelgan yangi yo'nalishlarning o'rganilganligi, ularning o'zbek adabiyotiga ta'sir etayotgani aniqlanganligi va Mark Tven, Charlz Dikens va boshqa ingliz yozuvchilari ijodiga mansub asarlarning nazariy hamda milliy-madaniy xususiyatlari yoritilganligi, bolalar adabiyotining o'ziga xos, nihoyatda murakkab turkumiy shakl ekanligi, Mark Tven, Charlz Dikens va boshqa ingliz yozuvchilari asarlari tarjimonlarining individual xususiyatlari, mahorati tahlil qilinganligi, tarjimalarning qiyosiy o'rganilganligi hamda magistrlik dissertatsiyalarini yozishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalar respublika oliy o'quv yurtlarida "Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti tarixi", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Tarjima amaliyoti", "Tarjima nazariyasi" fanlari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda, ingliz tili va adabiyoti yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar, o'qituvchilar foydalanishlari hamda adabiyot tarixidan maxsus kurslar yaratishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XIX asr ingliz bolalar adabiyotining o'zbek bolalar adabiyotiga ta'siri (tarjima va tahlil) masalasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot asosida:

XIX asr ingliz bolalar adabiyotining yangi bosqichga chiqishida Charlz Dikensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" romanidagi psixologik – *yetim bolalarning ruhiyati tasviri*, ijtimoiy – *tabaqalanishning kuchliligi*, xarakter – *yetakchilik xususiyati* kabi jihatlar ochib berilib, asar tarjimasining o'zbek bolalar

adabiyotiga uslub, janr, g'oya, poetik til nuqtai nazaridan ta'siri aniqlangan hamda tahlil va xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-A1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish", FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzusidagi fundamental va amaliy-ilmiiy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 22-dekabrda 502/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz bolalar adabiyotining jahon bolalar adabiyoti rivojida, qolaversa, ingliz tilidagi asarlarning o'zbek tiliga tarjimalari o'zbek bolalar adabiyoti rivojida tutgan o'rni, xususiyatlari, romanlarning o'zaro farqlanishi haqidagi ma'lumotlar masala yechimini aniqlashga imkon bergan;

dissertatsiyada Mark Tven ijodidagi gumanistik va demokratik pozitsiya, obrazlar nutqidagi yumor va o'tkir satira, insonparvarlik, odamiylik, bag'rikenglik, optimistik ruh va chuqur falsafiy mazmun ta'sirchanligining tarjimada saqlab qolingani asliyat bilan qiyoslash orqali asoslangan ilmiy natijalari, undagi ilmiy-nazariy qarashlardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" (2012-2016) mavzusidagi fundamental va amaliy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 22-dekabrda 502-son dalolatnomasi). Natijada, ingliz bolalar adabiyotining tarixiy bosqichlari, bolalar adabiyotida naql, maqol va matallarning tarjimada berilishi, ularni tarjima qilish usullari; bolalar adabiyotiga xos bo'lgan obrazlarning ingliz tilidan qardosh bo'lmagan tillarda ifodalanishi, ingliz bolalar adabiyotida qahramonlar nutqining o'zbek tiliga tarjima qilinishi va ushbu xalqlar bolalar adabiyotining rivojlanishiga ta'sirini o'rganish bu sohadagi bilimlarini yanada boyishga xizmat qilgan;

G'afur G'ulom ijodiga "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asarlarining adabiy ta'siri aniqlangan hamda, adibning asarlarida ham sarguzashtlilikning yetkachiligi, realizmning kuchliligi va avtobiografik elementlarning mavjudligi aniqlangan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational Linguistics at Central Asian universities" grant loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 16-dekabrda 1275/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur xulosalar loyiha doirasida milliy korpusning adabiyotga oid atamalarning shakllanishi va tabiiy tilga ishlov beruvchi dastur (NLP tool)ni ishlab chiqishda, elektron platformasi qidiruv tizimidagi ma'lumotlar bazasiga kiritishda muhim manba sifatida xizmat qilgan;

o'zbek tarjimonlarining individual mahorati qiyoslangan, shuningdek, "Tom Soyerning boshidan kechirganlari", "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asarlari XX asr o'zbek adabiyoti namoyondasi G'afur G'ulom ijodiga ta'siri

ko'rsatilgani va ushbu holatni faktik materiallar asosida dalillanishiga oid xulosalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo'limining ish faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo'limining 2023-yil 15-dekabr 56-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya ishidan olingan ilmiy xulosalar kitobxonlarning badiiy matn doirasida qo'llanilgan so'z va iboralar izohini to'g'ri anglashlarida muhim manba sifatida yordam bergan.

XIX asr Amerika bolalar adabiyoti taniqli vakili Mark Tven ijodining jahon bolalar adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi, ayniqsa adib asarlari tarjimalarining o'zbek bolalar adabiyotiga ta'siri, romanlarining o'ziga xos xususiyatlari, farqlari hamda asarlari badiiy tarjimasini asliyat bilan qiyoslash orqali olingan xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yil 4-dekabr kuni efirga uzatilgan "Assalom, Samarqand" ko'rsatuvi dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 15-dekabrda 01-07/402-son ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz bolalar adabiyoti vakillari merosi sanalgan romanlarning o'zbek tiliga tarjimalari hamda tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy fikr va mulohazalar o'zbek bolalar adabiyoti boyishiga muhim hissa qo'shish bilan birgalikda ko'rsatuv ssenariysini tayyorlashda ish bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida 2 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, 3 ta ilmiy tezis va 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy qismi 134 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika, fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ingliz bolalar adabiyotining tarixiy bosqichlari**" deb nomlangan birinchi bobida ingliz bolalar adabiyoti tarixi va taraqqiyoti, ingliz bolalar adabiyotining yangi bosqichga chiqishi, Charlz Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" asarida bolalar obrazi kabi masalalar yoritib berilgan.

Ma'lumki, dunyodagi har qanday millatning, mamlakatning kelajagi uning yoshlari va ularning aql-zakovati qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Insonni fikr-mulohaza bildirishga, tafakkur qilishga o'rgatadigan asosiy vosita hisoblangan adabiyot tezkor axborot va yuqori texnologiyalar asri – XXI asrga kelib ham o'zining munosib o'rniga ega ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Badiiy adabiyotni qaysi yoshdagi kitobxonlar doirasiga mo'ljallanganligiga qarab ikkiga – kattalar va bolalar adabiyotiga bo'lish mumkin. Umumiy adabiyotning alohida qismi sifatida bolalar adabiyoti ham so'z san'ati sifatida rivojlanib bormoqda.

Bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui bolalar adabiyotini tashkil etadi. Bunda asosiy qism bolalar uchun yaratilgan badiiy asarlardan iborat bo'ladi. Aytish joizki, tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va dostonlarni o'z ichiga qamrab olgan jahon xalqlari badiiy adabiyoti bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Shu jihatdan, bolalar va o'smirlar adabiyoti namunalari quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) bolalar uchun mo'ljallangan xalq og'zaki ijodi namunalari;
- 2) bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan asarlar;
- 3) aslida bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsa-da, keyinchalik bolalar adabiyotiga aylanib qolgan asarlar.

Bolalar adabiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati uning xatti-harakatlarga boyligidir. Bolalar adabiyotida asarning syujetiga bo'lgan talab ham ana shunday xususiyatdan kelib chiqadi. Shuning uchun voqea-hodisalarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda tasvirlanishi talab etiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, bolalar uzundan-uzun tasvirlar va izohlardan ko'ra qisqa, lo'nda va tezkor syujetli hikoyalarni afzal ko'rishadi. Har qanday kitobxon bolani eng ko'p qiziqtiradigan savollardan biri "Endi nima sodir bo'lar ekan?" – degan savol hisoblanadi. Ana shu savolga javob topish uchun kitobxon bola asarni oxirigacha o'qishga oshiqadi.

Bolalarga mo'ljallab yaratiladigan asarlar uchun yozuvchilar bolalarning nuqtai nazari, ularning psixologiyasidan, fikirlash doirasidan kelib chiqib mavzu tanlaydilar. Shu o'rinda, yaratilayotgan asar tili bolalarning kundalik hayot tarzi va nutqiga asoslanib, grammatik jihatdan sodda va tushunarli bo'lishi lozimligini ta'kidlash kerak. Agar asarda ko'pincha kattalar nutqi qo'llanilsa, bu holat bolalarning charchashiga sabab bo'ladi va syujeti qiziqarli bo'lishiga qaramay, bolalar undan tezda zerikib qolishadi.

Bolalar adabiyoti ikki yo'nalishli adabiyotdir. U bolalarga mo'ljallangan ekan, avvalo, shularning adabiyoti hisoblanadi. Shu bilan birga, kattalarning, demakki, ota-onalarning ham adabiyoti hisoblanadi. Chunki bolalar adabiyoti xalq axloqiy qarashlarini badiiy aks ettiruvchi pedagogik xrestomatiyadir. Bu jihatdan XIX asrda ijod qilgan buyuk ertaknavis H.K.Andersenning quyidagi fikri diqqatga sazovor: "Men nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun yozayotganimni ham doim esda tutaman. Bolalarni ertaklarning fabulasi hammadan ko'proq qiziqтира,

kattalarni ularga singdirilgan g'oya qiziqtiradi”<sup>8</sup>.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, XVII asrda Yevropa adabiyotida “yangi bolalik obrazining tug'ilishi, madaniyatning barcha sohalarida bolaga qiziqish ortishi, xronologik va ongli ravishda bolalar va kattalar dunyosining yanada aniqroq turlanishi, va nihoyat, bolalik orqali ijtimoiy va psixologik qiymatning tan olinishi” bilan ifodalangan. XVIII asrga kelib badiiy adabiyotda bolalik mavzusi asosan poetik bo'lgan bo'lsa, kelgusi yuz yillikda u poetik “markaz”dan chetlanadi. Ma'rifat davrida adabiyotda bolalarga qiziqish paydo bo'lganini ta'kidlash mumkin, biroq u asosan prozaik, tarbiyaviy xarakterga ega. Bu “Aql saltanati”ni o'rnatish uchun bo'lgan kurash, tarbiya va umuman ma'lumot olishga bo'lgan kuchli e'tibor bilan bog'liq. Bolalar mavjud bo'lgan kitoblar – bu ko'pincha faqatgina bolalarga qaratilgan emas, balki ularning tarbiyachilariga ham taalluqli dasturdir (J.Lokkaning “Ma'lumot olish haqidagi o'ylar”, J.J.Russoning “Emil”). Puritan an'alariga ko'ra boladagi bolalik – bu o'tish qiyin bo'lgan to'siq.

Ingliz adabiyotida bolalik R.Pattinsonning “Ingliz adabiyotida bola shakli”, M.H.Abrams “Ko'zgu va chiroq” asarlarida bolalik obrazi mavzusini ko'rib chiqishgan. Mualliflar asosiy e'tiborni romantizmdagi yangi bolalik konsepsiyasi va Charlz Dikens asarlaridagi bolalar obraziga qaratgan. L.S.Markus o'z tadqiqotining vaqtinchalik chegaralarini toraytirgan. Uning ishlari predmeti davrning keng ko'rib chiqilgan ijtimoiy-madaniy kontekstdagi XVII asr bo'ladi. XVII asr adabiyotida bola obrazlarining tahlili rus adabiyotshunos olimi M.I.Sverlovning “XVII – XIX asrlar boshi ingliz qasidasida bolalik mavzusi” nomzodlik dissertatsiyasida ham davom ettirilgan.

Yevropada romantizm davrining vakillari bolalikni xuddi butunlay mustaqil, takrorlanmas, muhim va bebaho dunyodek his qilishgan.

Klassitsizm uchun agarda “kattalik” norma bo'lgan bo'lsa, bolalik yillari esa – undan chekinishdir, unda romantiklarga asosan boshqacha yoshlar o'rtasidagi nisbat xarakterlidir: kattalik holati og'riqli davr bo'lgan, bolalik esa – inson hayotining ideal davri. Shunga bog'liq romantiklarning tarixga, ayniqsa, folklorga keskin qiziqishini eslaylik. Bejiz emas, rassomlar uchun bu yo'nalishning eng ommalashgan janrlardan biri o'zining negizida xalq og'zaki ijodiga ko'tarilgan ertaklar (Arnim va Brentano, aka-uka Grimmlar, Gauff, Andersen va boshqalar) bo'lgan. Shunday qilib, romantizm estetikasida bolalik juda katta ahamiyatga ega bo'la boshlaydi – faqatgina bir shaxsning bolaligi emas, balki umuman insoniyatning bolaligi.

Adabiyotning rivojlanishi bilan unda XIX asrning boshida o'z yuksalishiga yetgan shaxsning “ichki uyg'onishi” ko'proq ta'kidlangan. I.S.Konning yozishicha, bu “dunyoning sivilizatsiyasi”, ayniqsa, XVII-XVIII asrlarda shiddatli rivojlanishni boshlagan bo'lib, inson hayotining ko'plab sohalarida namoyon bo'lgan. Agarda din haqida gapiradigan bo'lsak, unda protestantizm Xudo bilan muloqotga chiqish yanada individual-shaxsiy xarakterga ega bo'ladi, piyestislarda esa XVII-XVIII asrlarda Xudo individual suhbatdosh va hattoki do'stga aylanadi.

---

<sup>8</sup> Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 14.

Shunga o'xshash holatlarni til tarixida ham uchratish mumkin: agarda eski ingliz tilida "self" morfemasi bilan bog'liq so'zlar bor-yo'g'i o'n uchta bo'lgan bo'lsa, unda XVIII asrning ikkinchi yarmidan ularning soni keskin oshadi; xuddi shu yuzyillarda ichki ruhiy holatlarni, kayfiyatni, kechinmalar va boshqalarni anglatadigan so'zlar keng tarqalgan.

Ingliz bolalar adabiyoti Yevropa bolalar adabiyoti orasida eng ahamiyatlilaridan biri hisoblanadi. Uning umumiy tipologik qonuniyatlarga bo'ysungan shakllanishi va rivojlanishi ko'plab holatlarda aynan rus va fransuz bolalar adabiyoti bilan o'xshash, lekin shu bilan birga, alohida o'ziga xos milliy belgilar bilan ham boyitilgan. Bolalarning o'qish doirasi shakllanishi asosining o'zi ham bolalarga mo'ljallangan maxsus asarlar va bolalar uchun tanlab olinadigan "katta" adabiyot butun ingliz xalqining milliy adabiyoti bilan chambarchas aloqani belgilab beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar Angliyada bolalar uchun maxsus atalgan chinakam badiiy adabiyot paydo bo'layotgan vaqtda faqatgina bolalar o'qishi uchun asarlar qatoriga kirgan, ammo asar boshida kattalarga mo'ljallangan kitoblar haqida gapirish mumkin. Shu davrning o'zida Angliyadagi ba'zi bir adabiy jarayonning xususiyatlari bolalar o'qishiga keyinroq kattalar kitobini "tatbiq etishga" juda yaxshi yordam bergan.

Ingliz xalqining og'zaki ijodi ham, XVII - XIX asrlarning bir qator "kattalar" asarlari uchun qaysidir darajada juda keng janrli chegaralarda paydo bo'ladigan "ingliz yumori" nomi bilan mashhur bo'lgan o'ziga xos fikrlash eksentrizmi xarakterli bo'lgan ironiyali lirikadan to o'tkir ijtimoiy satiragacha: milliy badiiy tafakkurning aynan shu xususiyatlari ingliz bolalar adabiyotining ko'pincha "kattalar" adabiyoti ta'sirida rivojlanishiga yordam bergan: bu ham badiiy obrazlilikning tizimiga, ham poetikaga, ham janrli xususiyatlarga tegishlidir. Birinchi ingliz folklor asarlari boshida katta yoshdagi kitobxonga mo'ljallangan bo'lgan. Xalq og'zaki ijodining juda eski shakllari: birinchilardan bo'lgan "Beovulf" epik asarlari XVII - XVIII asrlar oxiriga kelib ham bolalarning mulkiga aylana olmadi. Boshida kattalar uchun mo'ljallangan adabiyot eng "yosh" janrlar bolalar oson va tabiiy o'qiy oladigan adabiyotlar tarkibiga kirdi va o'ziga xos ikkinchi tug'ilishni boshidan kechirishdi. Bu janrlar ichida, eng avvalo, balladani alohida keltirishimiz kerak. Ingliz va shotland balladasi XIII asrda paydo bo'ldi va shakllandi, ammo butunlay gullab-yashnash davri tarixiy to'fonlarga boy XV asrda, Qizil va Oq atirgul urushi vaqtida erishdi. Asosan kechroq yozilgan balladalar, garchi Angliyadagi ba'zi bir mashhur balladali syujetlar orqali (ko'pincha qayta ishlangan) bolalar adabiyotiga kirgan bo'lsa ham, ba'zi syujetlar hayratlanarli darajada xilma-xillikda saqlanib qolgan.

Ingliz adabiyoti tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, hech bir ingliz yozuvchilari Charlz Dikens kabi hayotligida bunday shuhratga erishmagan. Dikensni birinchi hikoyasidanoq tan olishdi va oxirgi kungacha, yozuvchining o'zi, uning qarashlari va ijodi o'zgargan bo'lsa ham shunday bo'lib qoldi. Zamondoshlari ichida Dikensning mashhurligi siri shundaki, u Angliya hayotidagi o'zgarishlarni kuchli sezgan, minglab odamlar umidlari va intilishlarining ifodalovchisi bo'lgan. Yozuvchining vafotidan so'ng uning

asarlari qattiq tanqidga ola boshlashdi va faqatgina XX asrga kelib Dikpens ijodining ahamiyati butunlay aniq bo'ldi.

Dikpensni birinchi rus tarjimoni I.Vedenskiy uning asarlari, umuman barcha asarlari nashrining ta'siri bilan Dostoyevskiydek vakil bilan tenglashtirgan. Dikpens og'ir daqiqalarda shunchalik ta'sirlangan ediki, piching bilan chamadonlarini olib Rossiyaga ketish vaqti kelgani, u yerda uni o'z vatanidagidan-da ko'proq tushunishlarini takidlaydi. Dikpens romanidagi jamiyat holati tasvirlanishi nimasi bilandir bizning hozirgi zamonaviy jamiyatimizni eslatadi – mayxo'rlikdan, jinoyatdan va mansabdorlarning loqaydligidan qocha olganligi bugungi hayotimizda ham o'z aksini topadi.

Dissertatsiyaning **“XIX asr Amerika bolalar adabiyoti va Mark Tven asarlarining o'zbek bolalar adabiyotiga ta'siri”** deb nomlangan ikkinchi bobida **“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”** romanida bolalar obrazining tasviri, **“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”** romani o'zbek tiliga tarjimasi, asardagi qahramon bolalarning o'ziga xos jihatlarning o'zbek bolalar adabiyotiga ta'siri kabi masalalar ochib berilgan.

Dunyoga mashhur bolalar yozuvchisi Mark Tven o'zining ilk mustaqil romani **“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”** asarini bolalik poeziyasi deb hisoblab, uni prozaga o'girilgan oddiy madhiyaga o'xshatgan. Turli millatlarga va yoshlarga mansub kitobxonlar ham Mark Tvenning bu asarini aynan shunday qabul qilganlar.

Mark Tvenning o'zi 1875-yil 15-iyulda adib va adabiyoshunos Gouyelsga yozgan maktubida **“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”**ni fransuz adibi Lesajning **“Jil – Blaz”**iga tenglashtiradi hamda **“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”**ni bolalar uchun yozilgan kitob emasligini, asar faqat kattalar tomonidan o'qilishi, u faqat kattalar uchun yozilganligini ta'kidlaydi. Biroq ushbu kitobni nashrga tayyorlash jarayonida Mark Tven yosh kitobxonlarni ham unutmadi. Shu o'rinda, V.G.Belinskiyning so'zlarini eslab o'tish kifoya, u bolalar adabiyotini **“barcha uchun”** yozilgan badiiy asar deb hisoblagan. Mark Tvenning o'zi ham ana shunday fikrda bo'lgan.

Aytish joizki, adabiy aloqalar bir yoqlama emas, balki o'zaro bo'ladi. Bunda milliy adabiyotlarning o'zaro bir-biriga ta'siri va bir-birini boyitishi tushuniladi. Bu jarayonda badiiy tarjimaning o'rni beqiyos. Badiiy tarjima milliy yozuvchilar uchun katta ijodiy maydon, mahorat maktabidir. Jahon adabiyoti namunalari dastlab o'zbek tiliga tarjima qilganlar asosan o'zlari ham adiblar, shoirlar bo'lishgan. Ular orasida Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, M.Shayxzoda, H.Olimjon va boshqalar bo'lgan. Har bir yozuvchi, har bir shoir o'ziga yoqqan adibning asarlarini tarjima qiladi. Zo'rma-zo'raki, majburiyat yuzasidan qilingan tarjima san'at asari bo'lmaydi: **“...tarjima qiluvchi kishining o'zi yaratuvchi, ijodkor bo'lishi kerak, aks holda, o'nlab qalin kitoblarni o'z tiliga o'giran kishi ham hech qanday “asliyat”ni his qilmagunicha, oddiy tilmoch bo'lib qolaveradi”**<sup>9</sup>.

**“Tarjimonlik faoliyati – intellektual, aql ila, bosqichma-bosqich bajariladigan harakatlardan iborat. Uning bilan shug'ullanayotgan shaxs dastavval,**

---

<sup>9</sup> Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 162.

qo'yilayotgan vazifani to'liq belgilashi, harakat yo'nalishini aniqlab olishi zarur bo'lsa, keyingi o'rinlarda reja tuzishi, tarjima amallarini izlashi, tanlashi va ulardan foydalanishi, nihoyat, erishilgan natijani belgilangan maqsad, vazifaga qay darajada mos kelishini sinab ko'rmog'i darkor"<sup>10</sup>.

Boshqa milliy adabiyot namunasini o'z ona tiliga o'g'irgan tarjimonning o'zi ham adib yoki shoir bo'lsa, tarjima muvaffaqiyatli chiqadi. Zero, ijodkor ijodkorning holatini boshqa kishiga qaraganda aniq va to'liq his qiladi, uning qarashlarini to'g'ri tushunadi va uning fikrini kitobxonga chuqurroq anglatishga harakat qiladi.

Ma'lumki, yer yuzida yashovchi turli millatlar o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalar kecha yoki bugun boshlangan hodisa emas. Ularning ildizi qadim-qadimga borib taqaladi. Adabiyotshunos olim F.K.Sulaymonova to'g'ri ta'kidlaganidek, "Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o'z holicha yashagan emas, aks holda hech qanday taraqqiyot bo'lmagan bo'lar edi"<sup>11</sup>.

Dunyo xalqlari o'rtasida adabiy aloqalarning rivojlanishiga nashriyotlar va ommaviy axborot vositalarining ham hissasi kattadir. Bunga o'rta asrlardanoq nashriyot-matbaachilik ishlari yo'lga qo'yilgan Yevropa misolida guvoh bo'lish mumkin. Albatta, o'zga tillarda chop etilgan asarlar bilan tezroq tanishishning eng yaxshi yo'li ularni o'sha tillarda o'qimoqdir. Biroq shu o'rinda ba'zi tarjima va adaptatsiyalar ham qo'l keladi.

Jahon xalqlarini bir-birlaridan ajratuvchi ham, ularni birlashtiruvchi vosita ham – tildir. Yer yuzida yashovchi barcha xalqlar, ularning vakillari bir-birlari bilan asosan tarjima orqali muloqot qiladilar. Xalqlar, millatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy aloqalar kuchaygani sayin tarjima ham, tarjimachilik ham kuchayib boraveradi. "Tarjimachilik faoliyatining bosh yo'nalishi turli tillarda gaplashuvchi xalqlarni o'zaro tanishtirish, adabiyot orqali o'zaro muloqotini tashkil etish, boshqacha aytganda, madaniyatlararo kommunikatsiya imkoniyatini yaratishdir"<sup>12</sup>.

Jahon adabiyoti durdonalarini tarjima qilish tufayli buyuk so'z ustalarining o'lmas asarlari dunyoning yuzdan ortiq tillarida jaranglamoqda. Homer, Sofokl, Uilyam Shekspir, Iohann Gyote, Onore de Bal'zak, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, E.Heminguey, Alisher Navoiy, Gi de Mopassan va boshqa o'nlab adiblarning asarlari dunyoning deyarli barcha xalqlari tillariga tarjima qilingan.

Ana shu badiiy tarjima sababli milliy adabiyotlarning o'zaro aloqasi, bir-biriga ta'siri kundan-kunga rivojlanib bormoqda. "Keyingi yarim asr ichida bir mamlakat adabiyotining boshqa mamlakat adabiyoti olamiga kirib borishi jarayoni muayyan darajada butkul insoniyat madaniyatini to'la qamrab oldi. O'zining miqyosi va e'tibori bilan ham, jadallik sur'ati bilan ham, ijtimoiy mazmun-mohiyati bilan ham bu jarayon to'xtovsiz rivojlanib bormoqda"<sup>13</sup>.

---

<sup>10</sup> Бархударов Л.С. Язык и перевод // Вопросы общей и частной теории перевода. – Москва: Международные отношения, 1975. – С. 56.

<sup>11</sup> Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 17.

<sup>12</sup> Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, – 2005. – B. 114.

<sup>13</sup> Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 18.

Dunyoda mavjud bo'lgan milliy tillarning boyishi, mushtarak so'z, atama, iboralarning paydo bo'lishida ham, milliy madaniyatlar va milliy adabiyotlarda mushtarak ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik qonuniyatlarning paydo bo'lishida ham tarjima katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, janr ijtimoiy-badiiy tafakkur taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida yuzaga kelib, jamiyat taraqqiyoti talablariga ko'ra o'sib, rivojlanib, o'zgarib boruvchi tarixiy kategoriyadir. Adabiy janrlar badiiy olamdan tashqaridagi voqelik bilan chambarchas va turli sohalardagi rishtalar bilan bog'langan. Eng avvalo, bu aloqaning genetik jihatlari muhimdir. Asarlarning janrlari mohiyatan tarixiy-madaniy hayotdagi yirik ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar bilan bog'liq.

Sharq mumtoz adabiyotida sayohat taassurotlarini tasvirlovchi asarlar "Sayohatnoma" deb atalgan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si o'zbek mumtoz adabiyotidagi sayohatnoma janrining eng nodir namunasi hisoblanadi. Fors-tojik adiblari Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye", Nosir Xisravning "Safarnoma", Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" va Abdulla Avloniyning "Afg'on safari" hamda "Boburnoma" kabi asarlar safar voqealari va taassurotlarini bayon etishga bag'ishlangan. Biroq ayrim adabiyotshunoslar ularni sayohatnomalardan farqlashadi. Sayohat taassurotlari shaklida yozilgan roman va poemalardan xotiranomalarni farqlash kerak. Chunki yo'l xotiralari davr sinovlaridan o'tgan janr bo'lib, uning ijodkori faqat tabiat va urf-odatlar bilan qiziqib qolmasdan, xalq hayotini chuqur bilishga, turmush, madaniyat, adabiyot va hokazolar haqida fikr yuritishga intiladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham sayohatnoma janrida yaratilgan asarlarning salmog'i sezilarli. Bularga misol qilib Oybekning "Nur qidirib" povestini, O'.Umarbekovning "Bolgar qo'shiqlari" she'rlar to'plamini, X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" sarguzasht dilogiyasini, va boshqa qator asarlarni keltirish mumkin. Muhammad Ali, Qamchibek Kenja, Dadaxon Nuriyning qator asarlari esa safar xotiralariga bag'ishlangan. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi syujet, obraz va undagi personajlar jihatidan Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romaniga juda yaqin. Bir so'z bilan aytganda, Shum bola o'zbek adabiyotining "Tom Soyer"i deb aytishimiz mumkin.

M.Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va uning mantiqiy davomi hisoblanmish "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" romanlari ham sayohatnoma janrida yozilgan sarguzasht bolalar adabiyoti namunalari.

Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida ham, shuningdek G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida ham sayohat majburiy darbadarlik sifatida namoyon bo'ladi. Zotan, asarlarning qahramonlari ham, ularning atrofida uchraydigan qator personajlar ham o'zlarining ixtiyorlari bilan yo'lga chiqishmaydi, ularni sharoit yoki ro'y bergan tasodifiy bir voqea shunday qilishga majbur etadi <sup>14</sup>.

Shum bola uydan sharmandalarcha chiqib ketgan bo'lsa, Tom o'zga yurtlarni

---

<sup>14</sup> Abrorov A., Soyimov B. G'afur G'ulomning badiiy olami. – Toshkent, 1984. – B. 24.

ko‘rish, qaroqchilardek hayot kechirish ishtiyoqi bilan yonadi. Biroq ular uzoqqa keta olishmaydi: ular o‘z boshlaridan kechirgan ham tashvishli, ham quvonchli voqealar asosan o‘z yurtlarida, o‘zlari tug‘ilib o‘sgan maskanlar atrofida ro‘y beradi (M.Tvenning “Tom Soyer xorijda” asari bundan istisno). Tomning sarguzashtlari xolasi Polli yashaydigan shahar, uning atroflari, Missisipi daryosi va undagi orolda kechsa, Shum bola esa Toshkent va uning atrofida joylashgan aholi maskanlari – Keles, Ko‘kterak, Eshonbozor va boshqa yerlarda tentiraydi. Shum bola o‘z uyini tark etib, bir muddat xolasinikidan boshpana topadi, biroq pochchasining ishonchini oqlay olmaydi: o‘zining noshudligi tufayli pochchasining sayroqi qushlarini o‘ldirib qo‘yadi va bu yerdan qochishga majbur bo‘ladi. Tomning sarguzashtlari esa do‘sti Gek bilan o‘lib qolgan mushukni dafn etish uchun tunda “qaroqchilar” oroliga borib qolganlaridan so‘ng boshlanadi.

*Asliyat:* Then he jumped to the roof of the woodshed and then to the ground. Huckleberry Finn was there, with his dead cat. The boys moved off and disappeared in the gloom. At the end of half an hour they were wading through the tall grass of the graveyard.

